

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.P.Jurayev

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida yer egaligi tizimi va uning o'ziga
xos jihatlari.....285

Sh.Sh.Jumayev

Farg'ona viloyatidagi yevangel xristian baptistlar jamoasi tarixi va bugungi kundagi
faoliyati293

K.Abdurakhmanova, M.Jurabekova

Reflection of folk medicine in the elements of primitive religion
(the example of Jizzakh)297

ADABIYOTSHUNOSLIK**S.Mirzaeva, N.Y.Usarova**

A comparative analysis of the characters of king Arthur and Alpomish in english and
uzbek folklore literature301

A.G.Sabirdinov

Jadidchilik, muxtoriyat, mustaqillik307

G'.O.Xolbutayev

Askiya-so'z san'ati, hozirjavoblik va zukkolik mahorati310

O.Barziyev, F.Baxtiyor

Sayohat taassurotlari bilan bog'liq poetik turkumlar tasnifi317

S.A.Xodjayev

Folklor namunalarida uchlik timsoliga asoslangan ramzlar323

Н.К.Сабиров, В.А.Гиёсова

Движение джадидизм и узбекская детская литература326

G.Ch.Muratova

G'.G'ulomning "Shum bola" qissasida qahramon ruhiy olami tasviri329

TILSHUNOSLIK**N.R.Gafurova**

O'zbek va ingлиз tillaridagi o'zlashma so'zlar va neologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari333

Q.Sh.Kaxarov, D.M.Dehqonova

O'zbek va ingлиз tillarida iboralarning qo'llanishi338

Y.E.Ro'ziboyeva

Ingliz va o'zbek tillaridagi estetik qadriyatlarni ifodalovchi maqollarning
lingvakulturologik xususiyatlari341

N.R.Gafurova

Neologizmlarning tarjimada ifodalanishi va o'ziga xos xususiyatlari344

M.G.Khoshimov

Problems of general and typological theory of composite sentence with a parenthetical
clause as an invariant type of syntactic unit347

D.M.Yuldasheva, M.A.Ermatova, N.U.Abdumalikova

Jahon tilshunosligida matn tadqiqi haqida354

M.M.Aslonov

The educational process and content of educational activities in the
"House of Bukhara education"358

Z.V.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi forsiy sinonimlar xususida362

G.R.Mamadalieva

Ingliz va o'zbek tillarida "Foot/Oyoq" leksemalarining semantik tahlili367

P.Sh.Kaxramonova

Badiiy asar tili va ekolingvistika373

H.U.Davlatova

Muloqotning nazariy asoslari hamda sohaga oid qarashlar376

H.U.Davlatova, H.Abdurahmonova

Milliy muloqot kompetensiyasini shakllantirish omillari380

FARG'ONA VILOYATIDAGI YEVANGEL XRISTIAN BAPTISTLAR JAMOASI TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI FAOLIYATI

ИСТОРИЯ И НАСТОЯЩАЯ ВРЕМЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЕВАНГЕЛЬСКОЙ ХРИСТИАН-БАПТИСТСКОЙ ОБЩИНЫ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

THE HISTORY AND CURRENT ACTIVITIES OF THE EVANGELICAL CHRISTIAN BAPTIST COMMUNITY IN FERGANA REGION

Jumayev Shohruh Shuhratjon o'g'li¹

¹O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi tayanch doktoranti

Annotation

Ushbu maqolada qadimdan yurtimizning hududlarida turli dinlarga mansub insonlar yashab kelganligi, mintaqalarda azaldan diniy bag'rikenglik ustuvor bo'lganligi, xususan, yevangel xristian baptistlar jamoasi vakillarini ham O'zbekiston hududlariga kirib kelishi, joylashishi, o'z ibodatlarini emin erkin bajarayotganligi Farg'ona viloyatidagi yevangel xristian baptistlar jamoasi misolida yoritib berilgan.

Аннотация

В данной статье в регионах нашей страны издавна проживали люди, принадлежащие к разным религиям религиозная толерантность всегда была приоритетом в регионах, в частности на территории Узбекистана проникли представители общины евангельских христиан-баптистов обосновались и свободно совершали свои молитвы что можно видеть явным примером Евангелической христианско-баптистской общины.

Abstract

In this article, people belonging to different religions have been living in the regions of our country since ancient times, religious tolerance has always been a priority in the regions, in particular, representatives of the Evangelical Christian Baptist community have entered the territory of Uzbekistan, settled down and performed their prayers safely. It is explained on the example of the evangelical Christian Baptist community in Fergana region.

Kalit so'zlar: Bag'rikenglik, konfessiya, pravoslav, katolik, protestan, injil, bibliya, baptistlar, yevangel, adventist, missionerlik.

Ключевые слова: Толерантность, Исповедь, Православие, Католик, Протестант, Библия, Баптист, Евангелист, Адвентист, Миссионер.

Key words: Tolerance, confession, Orthodox, Catholic, protestant, gospel, Bible, Baptists, yevangelical, adventist, missionary

KIRISH

Jahonda tez kechayotgan globallashuv jarayoni davlatlararo, millatlararo va dinlararo munosabatlarning yangicha shakl va vositalari vujudga kelayotganligini namoyon qilmoqda. Bugungi kunda butun yer yuzida diniy bag'rikenglik, konfessiyalararo o'zaro hurmat, bir-birini tushunish asosiy hayotiy tamoyilga aylanmoqda. O'zbekiston tarixidan ma'lumki, azaldan zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik, moniylik hamda islam dini vakillari o'zaro inoq va tinch-totuvlikda istiqomat qilishgan. Jumladan, "Qadimiya va saxovatlari bu zaminda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezzulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik xalqqa doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi[1]".

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИLІ

Tadqiq qilinayotgan mavzuga tegishli asosiy adabiyotlarni uch davrga ajratish mumkin. Birinchi davr Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri. Bu davrda yaratilgan adabiyotlar, asosan, Rossiya imperiyasining mintaqalarda yuritgan statistika ma'lumotlari, gazeta va jurnallarni o'z ichiga qamrab olgan. Ikkinci davr, XX asrning 20-90-yillarda yozilgan, yani sovet davrida yaratilgan adabiyotlardir. Bu davrda yaratilgan adabiyotlarda, asosan, sovet mafkurasida tahlil etilgan. Uchinchi davr esa, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng nashr etilgan tadqiqotlardir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning yozilish jarayonida umummilliy metodlardan foydalanildi, xususan, tizimli, tarkibli, funksional, qiyosiy tahlil, bashorat qilishning mantiqiy va tarixiy yondashuvlaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Baptizm (yunoncha baptizo - suvgan botiraman, cho'qintiraman) XVII asrning boshlarida Jon Smit (John Smit) asos solgan xristianlik dini protestant yo'nalishiga mansub oqim hisoblanadi[2]. Bu ta'llimot tarafdarlari cho'qintirish marosimidan faqat kattalarni o'tkazadilar va buni insonga o'zidan boshqa hech kim, xatto ota-onasi xam, dinni tanlab bera olmaydi, deb asoslaydilar. Baptistlarning xususiy jixatlaridan biri jamoaga a'zo bo'lishdan oldin bir yillik "sinov muddati" (kateximent) o'taydilar. Faqat ibodat vaqtidagi yig'ilishda tavba-tazarru qilgan va suvgan botirish marosimi orqali cho'qintirilgan shaxs jamoaning to'laqonli a'zosi hisoblanadi[3:66-67].

Baptistlar jamoasi hozirgi O'zbekiston hududiga ilk bor 1891-yilda Markaziy Rossiya va Sibir hududlaridan ko'chirib keltirilishi jarayonida paydo bo'lgan. Ularning soni 170 nafar bo'lgan. Dastlabki baptistlar ibodat uyi 1909-yil 2-iyulda Toshkentda ochilgan. 1928-yilda hozirgi O'zbekiston hududida 32 ta baptist jamoalariga birlashgan 4 ming kishi faoliyat ko'rsatgan[4:257-259]. 1946-yilga kelib Andijon, Farg'ona, Yangiyo'l, Qo'qon shaharlarida ham baptist jamoalari ro'yxta olingan.

Turkiston yeparxiyasining 1911-1912-yillarda e'lon qilingan xisobotida Farg'ona viloyati bo'yicha 106 nafar baptist, 1 adventist, 447 nafar boshqa jamoalarga tegishli insonlar yashagan qayd etilgan[5:207-210].

1912-yilning 1-avgustida Farg'ona viloyatinig Qo'qon shahriga kelgan Vasiliy Ilin bu joyda missioner baptist jamoalaring bu shaharda yashovchi temir yo'l ishida hizmat qiluvchi pravoslav jamolari orasida keng targ'ibot ishlarini olib borayotganligiga guvoh bo'lganligini yozadi. Shundan so'ng Qo'qonda baptistlar bilan bir necha bor ochiq suhbatlar olib boradi[5].

1913-yil 1-oktabr Turkiston yeparxiysi gazetasining (Туркестанские епархиальные ведомости) 19-sonida Turkiston hududida pravoslavlarga qarshi molokonlar, baptistlar va adventistlar tomonidan missonerlik harakati avj olganligini ko'rsatuvchi maqola e'lon qilingan. Unda yozilishicha Turkiston yeparxiyasini missoner ruhoniysi Vasiliy Ilin shunday hikoya qiladi. "O'lkaga kelgan adventist, molokon va baptistlar jamoasi tomonidan pravoslav cherkovi vakillariga nisbatan o'z dinlarini targ'iboti kuchayib ketdi. Xususan bu harakatlar Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand mintaqalarida kuchli tarzda kechmoqda". Muallif maqolada missionerlik harakati asosan o'lkagan yangi kelgan pravoslav jamoalari, temir yo'l va yo'l stansiyalarida xizmat qilayotgan ishchilar va hunarmandlarga nisbatan kuchli bo'layotganligi ta'kidlangan. Baptist va adventist jamoalarining missonerlari mohirona targ'ibotlarini voiz shaxslar olib borib, ruxsati yo'qligiga qaramay hamma joyda o'zlarining yig'iladigan joylarini ochganlar va erkin targ'ibot olib borganlar. Shuningdek ularning targ'ibotida bosma nashlardan foydalanish, risola va varaq tarqatish xollari ham bo'lgan. Turkiston yeparxiysi gazetasining 1912-yil 15-sonida chiqqan maqolada pravoslav cherkovi ruxoniysi Vasiliy Ilin va baptist jamoasi voizi M.D. Sapojnikov o'rtasida baxs bo'lib o'tganligi va bu bahs 3 kun davomida bo'lib o'tganligi yozilgan. Baxs davomida Vasiliy Ilin tomonidan baptistlar jamoasiga tur xil savollar bilan murojaat qilingan, lekin bu savollarni hammasi ochiq qolgan. Bundan ko'rindaniki pravoslav jamaolari orasida boshqa xristian toifalarga toqatsizlik bilan qarash hukmron bo'lgan

1916-yilda e'lon qilingan Turkiston yeparxiyasining xisobotida Turkiston, Qo'qon, Samarqand, Marv va Ashxbobod shaharlarida missioner toifalar bilan 30 dan ortiq suhbatlar olib borilganligi yozilgan. Xususan o'sha davrda Farg'ona viloyati bo'yicha rus qishlog'ida 16 nafar baptist, Qo'qon shaharda esa 30 nafar baptist, 2 nafar adventist bo'lganligi qayd etilgan. Umumiy xisobda Farg'ona viloyati bo'yicha 150 nafar baptist, 7 nafar adventist, 456 nafar boshqa jamoalar a'zolari yashagan[6].

Farg'ona viloyatiga Baptist jamoalarining kirib kelishida jamoa a'zosi Vasiliy Antonovich Yakimsev shunday hikoya qiladi. "1933 yilda Ukrainada katta ocharchilik bo'ldi. Ocharchilik oqibatida oilamiz Kemerovoga ko'chib o'tdi. Bizning oilada ota-onamdan tashqari 4 ta akam va 2 singlim bor edi. Otam, Yakimsev Anton Isakovich, Sibir hududida baptistlar jamoasining rahbarlaridan bir edi. U ko'pincha yo'lda bo'lar va meni o'zi bilan birga olib yurardi. O'sha paytda

TARIX

men 4 yoshda edim. Otam juda yaxshi va'zlar qilardi, uni eshitgan insonlarni ko'zlaridan yosh oqardi. O'shanda bizning jamoamizda qariyb 200 kishi bor edi. 1934-yilga kelib, Ukrainada bo'lgani singari Sibirda ham ochlik boshlandi. 1935-yilda bizning oila Farg'ona shahriga ko'chib keldi. Ko'chib kelganimizdan so'ng Farg'onadagi hayot bizga jannatga o'xshardi oq yumaloq non, uzum, o'rik, shaftoli, tarvuz bizni kundalik taomimiz hisoblanardi”[7]. Bu hikoyadan ko'rindaniki, Farg'ona viloyatiga baptistlarning ilk jamoalari 1935 yillarda kirib kelganligi va bu yerda o'zlarini faoliyatini boshlaganini ko'rishimiz mumkin. Baptistlar jamoasining ilk cherkovi 1935-yilda Farg'ona shahrida kichik cherkov mavjud bo'lgan. Cherkov rahbari Malaev Ivan Aleksandrovich edi.

Baptist jamoalarini viloyat hududida joylashishi asosan Qo'qon shahar va Farg'ona shahriga to'g'ri keladi. Chunki ilk baptist jamoalari ham huddi shu joylarga kelib o'nashganlar. O'tgan yillar davomida ham o'lkada ushbu konfessiya vakillari shu joylarda yashab qolganlar. Farg'ona viloyati hududlarida baptistlar jamoasining konfessional manzarasi turfa xil, bunga sabab sifatida esa ushbu konfessiya vakillarining missionerlik faoliyati bilan faol tarzda shug'ullanishlari bilan izohlasak bo'ladi.

Bugungi kunda respublikamizda Yevangel xristian-baptistlar cherkovlari uyushmasi tarkibidagi 23 ta diniy tashkilot, shu jumladan, 1 ta markaz Toshkent shahrida va 22 ta cherkov Toshkent shahrida – 3 ta, Buxoro viloyatida – 1 ta, Jizzax viloyatida – 2 ta, Navoiy viloyatida – 3 ta, Namangan viloyatida- 1 ta, Samarqand viloyatida – 2 ta, Toshkent viloyatida – 8 ta, Farg'ona – 2 ta ro'yxatga olingan.

Farg'ona shahridagi Sakkokiyo ko'chasi 56-uyda joylashgan “Yevangel xristian baptistlar” nomli ibodatxona 05.12.1998-yil kuni Farg'ona viloyati Adliya boshqarmasi tomonidan 143 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan. Haftaning chorshanba, shanba va yakshanba kunlari ibodatlar o'tkaziladi. Yevangel xristian-baptist cherkovi 1929-1946-yillarda qurilgan. Cherkovida diniy rasm rusumlar kamtarona va dabdabasiz o'tkaziladi. Cherkovda hech qanday sig'inish predmetlari mavjud emas. Yevangel xristian-baptistlar “Yakshanba kuni”, “Rojdestvo”, “Iso Masihning ko'tarilishi”, “Xushxabar”, “Iso Masihning arshi aloga ko'tarilishi”, “Pasxa” shuningdek faqatgina ushbu cherkovga tegishli bo'lgan bayram “Birdamlik kuni” ya'ni 1945-yilda yevangel xristian cherkovi va baptistlar birlashib, yagona cherkov hosil qilishi munosabati bilan qabul qilingan bayramlarni nishonlashadi. Cherkov a'zosi har oyda missionerlik faoliyati bilan shug'ullanishi va maoshini kamida o'n foizni cherkov xisobiga o'tkazishi shart hisoblanadi. Haftaning chorshanba, shanba va yakshanba kunlari ibodatlar amalga oshiriladi. Kunlik ibodatlarga 150 nafar, bayram kunlari esa 250 nafargacha ibodat qiluvchilar cherkovga tashrif buyurishadi. Bugungi kunda cherkovga Litvinov Nikolay Alekseevich rahbarlik qiladi.

Qo'qon shahar B.Naqshbandiy ko'chasi 43-uyda joylashgan “Yevangel xristian baptistlar” nomli ibodatxona 12.02.1999 yil kuni Farg'ona viloyati Adliya boshqarmasi tomonidan № 178 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan. Haftaning chorshanba, shanba va yakshanba kunlari diniy ibodatlar o'tkaziladi. Kunlik ibodatlarga 50-60 nafargacha, bayram ibodatlariiga 150 nafardan ortiq fuqarolar qatnashadi. Ushbu yevangel xristian baptistlar jamoasi cherkovlarida xoch va ikonalarga sig'inishni, aziz avliyolarni qadrlashni va shunga o'xhash narsalar bilan jihozlanmagan. Baptistlar jamoasi rahbari bilan suhabatda ular jamaa a'zolarini yaqinlariga ayniqsa ota onaga mehr-oqibatli bo'lishga, yordamga muxtoj insonlarga xayr-ehson qilishga, turli xil spirtli ichimliklar ichmaslikka, buzuqlik, kundalik xayotda isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikka, turmush qurgandan keyin oilasiga vafodor bo'lishga targ'ib qilinishini aytib o'tdi. Shuningdek, baptistlar cherkovida ibodatlar paytida diniy matnlardan qo'shiqlar aytish katta o'rinn egallaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz mumkinki, mintqa uchun begona bo'lgan ushbu konfessiya vakillarining yurtimiz hududiga kelib o'nashishi va bu joyda faoliyat olib borishi hech qanday qarshilik yoki to'siqqa uchramagan. Bunday munosabatni yurtimiz hududlarida yashayotgan millat va elatlarning boshqa din vakillariga nisbatan bag'rikeng va toqatli ekanligi bilan ifodasak bo'ladi. Bugungi kunga kelib yevangel xristian baptislari jamoasi vakillari boshqa diniy konfessiya vakillari qatorida o'z e'tiqodlari va ibodatlarini emin erkin bajarib kelmoqda. Ularga ham boshqa konfessiya vakillari kabi qonuniy tarzda shart shaoit yaratib berilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uch rashuvdagi nutqi. <https://gov.uz/uz/news/view/9078>
2. John Smyth. <https://www.christianitytoday.com/history/people/denominationalfounders/john-smyth>.
3. Hasanboev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: Diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. T.: Toshkent islom universiteti, 2014. – B. 66-67
4. К истории христианства в Средней Азии (XIX-XXвв.) Т.: Ўзбекистан, 1998. – С. 257-259
5. Туркестанские епархиальные ведомости. 1917. № 13. – С. 207-210
6. Туркестанские епархиальные ведомости. 1913. № 19. – С. 451
7. Туркестанские епархиальные ведомости. 1916. № 13. – С. 153